

## IKKI UNDOSHLI BIR BO‘G‘INLI SO‘ZLAR VA ULARNING HOSILALARI MUAMMOSI

**Shodiyev Faxriddin**

*Uzbekistan-Finland PI Head of the Department of Theory of Primary Education,  
associate professor  
Shodiyevbt@gmail.com*

Tub so‘zlar ichidagi bir bo‘g‘inli leksemalar o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Darhaqiqat, hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham unli-undosh-undosh, undosh-unli-undosh-undosh shaklidagi ikki undoshli bir bo‘g‘inli o‘zbekcha so‘zlar uchraydi: ilk, erk, ko‘rk kabi. Shuningdek, bu turkiy so‘zlar qadimgi manbalarda ham mavjud edi. Xususan, O‘rxun-Enasoy bitiktoshlarida yuzdan ortiq bir bo‘g‘inli so‘zlar ishlatilgan bo‘lib, ular ichida alp, barq, bars, bo‘ng, yurt, elt, qirq, to‘rt, sanch kabi ikki undoshli leksemalar ham uchrab turadi. Masalan:

1. Tort bulung qop yag‘i ermas (to‘rt taraf butunlay dushman ekan- “Ulug‘ bitik”).
2. Qag‘ani alp ermish (Hoqoni bahodir ekan –To‘nyuquq bitiktoshi).
3. Qirq artuqi eti yol sulemis... (Qirq etti marta lashkar tortgan... -Kul tegin bitiktoshi).
4. ...bu sug elt, tedi (...bu lashkarni elt, dedi –To‘nyuquq bitiktoshi). (A. Abdurahmonov, 72, 101-106 ; B. O‘rinboev, 60-95) kabilar.

Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ham yuzlab bir bo‘g‘inli leksemalar ichida ikki undoshlilari ham talaygina: alp, ort, ost, ont, erk, ilk, to‘rt, qurt, murch, kend, qirq, bo‘rk, turk, ko‘rk va boshqalar.

Masalan: Alp yag‘ida, alchaq jag‘ida (Botir dushman bilan to‘qnashganda olishganda, yuvosh –tirishishda sinaladi ).

Ant –ont, qa(sam, andiq –qasam ich).

Ilk –sen barg‘il (oldin sen bor).

Qurt –(hashorat), butun turklar shunday deydi, faqat o‘g‘izlar bo‘rini qurt deydilar.

Kork –(Ko‘rk, husn, korklik –ko‘rklik, chiroyli) Qoshg‘ariy 77-329 kabi.

Yuqoridagi manbalargda qo‘llanilgan ikki undoshli so‘zlar Alisher Navoiyning asarlarida ham keng ishlatilgan. Masalan:

2) Ayt –chin so‘zni yolg‘onga chulg‘ama, chin ayta olur tilni yolg‘onga bulg‘ama.

3) Qayt –Aytur so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt.

4) Tort –Har vafog‘a yuz jafo tort.

5) Qurt –Kecha ishlar qurt zabona ishin qilmas va ko‘palak parvona ishin bilmas.

6) Ul biri bol “lam yazal va lo-yazol” dur, aning ishqin berk tut(4-78, 124, 125).

O‘zbekcha ikki undoshli bir bo‘g‘inli so‘zlar Abdulla Qodiriy asarlarda ham qadimgi ma'nolari kabi mazmunlarda ishlatilgan. Masalan:

Ko‘ks –...majruh ko‘kslarga o‘qqina etadir...

Ayt –Otabek bir so‘z aytmay sukut qildi.

Ond –Tutunlar bilan ayvon deganimiz qob-qora is, ayvon bo‘lg‘anig‘a ond ichmakda kabilar (5 – 53: 174)

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ikki undoshli bir bo‘g‘inli so‘zlarning hosilalari ham imkon qadar izohlangan. Masalan: Tinch so‘zidan quyidagi hosilalar yasalgan: 1) Tinchimoq. 1. Og‘riq, ham –tashvish, dard-alam va shu kabilardan qutulib, engil tortib orom olmoq. Otabek uning (Kumushning) manglayini qo‘li bilan bosib ushlagan edi, bir oz tinchiganday bo‘ldi. (A. Qodiriy). 2. Ishdan, harakatdan to‘xtamoq; ishni harakatni to‘xtatib tin olmoq, tinmoq; tinch, bekor turmoq. Tinch turarmi bu ko‘hna olam, Tinch turarmi dog‘uli zamon(A. Oripov). Davom etishdan to‘xtamoq, bosilmoq, tinmoq. El tinchidi. Tinchitilmoq: Tinchimoq (Fe'ning majhul nisbati) To‘palon tinchitildi.

Tinchitishmoq: tinchitmoq/ fe'ning birgalik nisbati.

Tinchitmoq –1. tinchimoq / fe'ning orttirma nisbati . Shovqin suronni tinchitmoq . 2. s.t. Saranjom-sarishta qilmoq, bitirmoq. Xotirjam bo‘ling, hamma ishni o‘zimiz tinchitamiz. 3. s.t. Yo‘q qilmoq, bartaraf qilmoq, o‘ldirmoq.

Tinchishmoq. Yaxshisi shulki, bu bosh og‘riqlarini birvarakayiga oradan ko‘tarib tinchishaylik(Abdulla Qodiriy).

Tinchlanmoq –1. Hayajonini, achchig‘ini bosib yoki taftidan, hovridan o‘zini tutib olmoq, o‘zini bosmoq . –Tinchlaningiz, Otabek! –dedi Qushbegi.(A. Qodiriy). 2. Shovqin-suron, janjal, harakat va shu kabilarni to‘xtatib jim bo‘lmoq. –Tinchlikmi? –Tinchlik,-dedi eshik ochkan kampir. –Nega kech qolding, Safar? (A. Qodiriy)

Tinchlantirmoq. Muhammadrajabning rostdan ham O‘zgantda ekanini aytib, Abbosxon Saidiyi tinchlantirdi(A.Qahhor).

Tinchlatmoq. Yigitni hovlida qoldirib, xotiniga ayvonda o‘tirishga buyurdi, bolalarini tinchlatib, keyin Yo‘lchini chaqirdi(Oybek).

Tinchlik .1tinch . Joyning tinchligi . 2. Qurolli to‘qnashuvlardan, urushdan holi, tinch holat. Agar shu jonivorlar mendan sarmunshiylikni tinchlik bilan olsalar, o‘zimni juda baxtli sanar edim(A. Qodiriy). 3. Kishining oromini buzmaydigan, bezovta qilmaydigan, shovqin harakat va shu kabilardan holi tinch holat, orom. –Qo‘y-chi bu gaplarni, o‘zing tinchmisan? –Tinchligim qursin. (A. Qodiriy) 4. Churq etgan tovush eshitilmaydigan tinch holat, jimlik, jimjitlik,sukunat. Tinchlik saqlansin.

Tinchliksevar. Urush bo‘lmasligini, tinchlikni, mamlakatlar, xalqlarning tinch-totuv yashashini istaydigan va shunga intiladigan. Tinchliksevar xalqlar.Tinchliksevarlik. Tinchlikcha (ravish) Urush-janjal yoki to‘palon qilmasdan; biror g‘alva chiqarmasdan tinch yo‘l bilan. Musulmonqulga tarafdorlaringiz bo‘lsa, tinchlikcha ikkiindan chiqib ketsin (A Qodiriy).

Tinchsiz. Tinch yo‘q, betinch . Bu jumla kelasidagi anglashilib bitmagan, lekin bo‘lishi aniqqa o‘xshagan yaramas va tinchsiz bir hayotning go‘yo muqaddimasi (A Qodiriy).

Tinchsizlamoq. –Bizni kechirasiz, bek aka! –deb Raxmat uzr aytdi. –Vaqtsiz kelib sizni tinchsizladik(A Qodiriy).

Tinchsizlanmoq. Tinchligini yo‘qotmoq, betinch, bezovta bo‘lmoq, tashvishga tushmoq.(Otabek Qutidorga): Faqat sizning tinchsizlanishingiz va mardumning yuqori-quyi so‘zi bo‘lmasa, sizga boshqa zarar bo‘lur, deb o‘ylay olmayman (A Qodiriy) .

Tinchsizlantirmoq. Yo‘lchining bir nafas tinchsizlantirgan haligi xayollardan endi iz ham yo‘q (Oybek).

Tinchsizlik. Tinchlik yo‘qotilgan holat, betinchlik, bezovtalik; tashvishlanish . U (Hakimboyvachcha) yurtdagi tinchsizlikning sababini dinning susayganidan, ulomolarning xalqqa rahbarlik qilmaganidan ko‘rdi (Oybek).

Tinch-totuv. Urushsiz, janjalsiz, totuv. Tinch –totuv yashamoqdan o‘zga dunyoda baxt yo‘q. ... (6-181-182)

Tinch so‘zi va ikki undoshli boshqa leksemalar haqida turli fikr-mulohazalar ham bildirilmoqda. O‘zbek tilidagi bir ming oltmishta bir bo‘g‘inli so‘zlarni o‘rganib chiqqan E. Begmatov: "... bo‘g‘in boshida, o‘rtasida va oxirida ikki undosh tovush yonma-yon kelmaydi. O‘zbek tilidagi ost, ust, ayt, art, arch, berk, bo‘rt, yirt, ko‘ks, mo‘lt, ort kabi so‘zlar, bilch, gurs, zirk, yilt, tert, pirt singari taqlidiy so‘zlar bundan mustasno" desa, Faxri Kamol "Agarda to‘rt, tort, ort, urt singari juda ham kam sonni tashkil etgan ayrim so‘zlarni hisobga olmaganda, so‘z oxiri undoshlar deyarlik qator kelmaydi" deydi. (E. Begmatov. 77; F. Kamol, 95) Boshqa ko‘p manbalarda ham shunga yaqin fikrlar aytilgan . Ammo "O‘zbek tilining etimologik lug‘ati" muallifi Sh. Rahmatullaev o‘zgacha fikrda: "Ma'lumki, turkiy tillarda, shu jumladan o‘zbek tilida ham so‘zning (bo‘g‘inning) boshlanishida ikki undosh odatda yonma-yon kelmaydi. Ushbu tovush qonunidan kelib chiqilsa, adl, ast, ust kabi bir bo‘g‘inli so‘zlar oxirida yonma-yon kelgan undoshlarning ikkinchisi asli keyin ikkiilgan qism bo‘lib chiqadi, bu undosh asli ikkiimchani ifoda jihati ekani ayon bo‘ladi...Tinch...bu ot tin –fe‘lining "Harakat faoliyatdan to‘xta..." ma'nosidan (DS,567; tin-4) eski o‘zbek tilida (i)ch ikkiimchasi bilan yasalgan (ESTYa, Sh, 344); keyinroq ikkinchi bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qilinmay qo‘ygan (KPS, 791; TPS, 622), i unlisining qattqlik belgisi yo‘qolgan".

Demak, hozirgi o‘zbek adabiy tili nuqtai nazaridan ikki undoshli bir bo‘g‘inli so‘zlar asosli, ammo tarixiy-genetik jihatdan dastlab ikki bo‘g‘inli so‘zlar bo‘lishgan. Bu leksemalarni va ularning hosilalarini chuqurroq o‘rganish yuqoridagi qarashlarga yanada oydinlik kiritadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov G‘, Rustamov A . Qadimgi turkiy til . –T.: O‘qituvchi, 1981
2. O‘rinboev B, O‘rinboeva D. Qadimgi turkiy bitiklar. –S.: SamDU nashri, 2001.
3. Qoshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. I j, -T.: Fan, 1960.
4. Navoiy A mukammal asarlar to‘plami, 14 j.: Maxbub ul qulub. -T.: Fan, 1998.
5. Qodiriy A. O‘tgan kunlar. Mehrobdan chayon. –T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1994.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1 –11 j., -M.: Rus tili 1981.
7. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –T.: Fan 1985.
8. Shodiyev, F. (2023). ALISHER NAVOIY TIMSOLINI ERKIN VOHIDOV IJODIDAGI TALQINI TADQIQI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 522-524.
9. Teshaeovich, S. F. (2022). The Role of Children's Literature in the Formation of Professional Competence. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(12), 235-240.

10. Norkobilovna, J. S., Sadikovich, K. N., Teshaeovich, S. F., Gulmurodovna, S. L., & AkramIkromovich, S. (2021). Cultural and Historical Prerequisites for the Development of the Innovative Potential of the Subject of Creativity. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 2982-2986.
11. Fakhridin, S., Abdimurat, N., Gulbakhor, R., & Oybek, G. (2023). Interpretation of History and Historical Truth in the Samples of Alisher Navoi's Hasbi Hazal. *Journal of Advanced Zoology*, 44.
12. Shodiyev, F., & Bahramova, M. (2023, June). Technology For Conducing Interactive Lessons. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 16-18).
13. Teshaeovich, S. F. Interactive Technology in Primary Education. *International Journal on Integrated Education*, 3(10), 76-77.
14. Shodiyev, F., Saidullayeva, S., Abdullayeva, Z., & Tirkasheva, M. (2023). Children's Literature in the Formation of Professional Competence Position. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(6), 73-78.
15. Shodiyev, F., Kiyamova, S., Karshyeva, G., & Muradullayeva, D. (2023). The Technology of Preparation of the Future Primary School Teacher in the Global Process. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 4(6), 108-111.
16. Teshaeovich, S. F. (2021). Essence of children's literature in the formation of professional competence.
17. Teshaeovich, S. F. (2021). Alisher navoi's interpretation of global ideas on human perfection. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(11), 542-550.
18. Shodiyev, F. (2024). TRAINING OF FUTURE INNOVATIVE AND CREATIVE THINKING PRIMARY SCHOOL TEACHER. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 4(37), 189-195.
19. Drobchenko, N. V., & Fakhridinov, M. F. (2022). USING THE COREL DROW COMPUTER PROGRAM TO DEVELOP STUDENTS'CREATIVE ABILITIES THROUGH DRAWING.
20. Fakhridinov, M. Convenience of working with AutoCAD Software in Drawing and Drawing Geometry. *Fan va ta'lim integratsiyasi jurnali*, 165-170.
21. Fakhridinov, M. The impact of modern technology on education. *Fan va ta'lim integratsiyasi jurnali*, 165-170.
22. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). CHIZMACHILIK FANI ORQALI TALABALARNING IJODKORLIK QOBILİYATLARINI O'STIRISH. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022*, 2(23), 41-44.
23. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). DUNYO TA'LIM USLUBLARIDAGI SARA DURDONALAR... *Научный Фокус*, 1(7), 190-193.
24. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). KOMPYUTER VA UNING GLOBAL TA'LIMDAGI KREATIV O'RNİ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 514-521.
25. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). O'ZBEKISTON VA FINLANDIYA MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK FANLARIGA

QO'YILADIGAN TALABLARNING BIR-BIRIDAN FARQLANISHI. Научный Фокус, 1(7), 46-52.

26. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). XALQARO TA'LIM TIZIMIDA TECHNOLOGIYANING O'ZIGA XOSLIGI. PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE, 1(6), 56-59. Retrieved from <https://interonconf.org/index.php/spa/article/view/8866>

27. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). Art and Architecture of Europe. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 5(1), 16-18.

28. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). CHIZMACHILIK FANI SIR-ASRORLARINI O'QUVCHILARNING ONGIGA YETKAZISHNING ZAMONAVIY YECHIMLARI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(19), 142-148.

29. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). COMPUTER GRAPHICS IN THE SPHERE OF DRAWING DETAILS: ENHANCING CREATIVITY AND PRECISION. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 4(37), 196-199.

30. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). COMPUTER GRAPHICS: EXPLORING COMPUTER GRAPHICS IN AREAS DRAWING AND ARTS. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(19), 43-46.

31. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). EXPLORING THE SPECIFIC INNOVATIONS OF COMPUTER GRAPHICS IN DRAWING SCIENCE. Научный Фокус, 1(10), 56-58.

32. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). FIN TA'LIM TIZIMINING GLOBAL O'QITISHDA TUTGAN O'RNI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(26), 152-155.

33. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). PIRLS – (PROGRESS IN INTERNATIONAL READING LITERACY STUDY) - XALQARO O'QUVCHILAR SAVODXONLIGINI BAHOLASH TIZIMI HAQIDA. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 785-790.

34. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). PISA – (PROGRAMME FOR INTERNATIONAL STUDENT ASSESSMENT) –XALQARO O'QUVCHILARNI BAHOLASH DASTURI HAQIDA. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 220-225.

35. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASI VA CHIZMACHILIK DARSLARIDA KESIMLAR VA ULARNI O'RGATISH METODIKASI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 67-75.

36. Faxriddin, S. (2024). TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH TECHNOLOGIYASI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 183-187.

37. Faxriddin, S. (2024). XALQ MAQOLLARIDAN FANLARARO FOYDALANISH INTEGRATSIYASI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 188-192.

38. Teshaeovich, S. F. The Role of Didactic Games in the Training of Future Teachers. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 7(10), 62-64.

39. Teshaeovich, S. F. (2021). A Study of the Image of Navoi in the Works of Erkin Vahidov. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 2(12), 170-172.

40. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). PISA–(PROGRAMME FOR INTERNATIONAL STUDENT ASSESSMENT)–XALQARO O'QUVCHILARNI BAHOLASH DASTURI HAQIDA. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 208-213.